

Kapital bilan operatsiyalar hisobini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom

Kapital bilan operatsiyalar hisobini shakllantirish bo'yicha Uslubiy nizom (keyingi o'rinlarda – Uslubiy nizom) Milliy hisoblar tizimi – 2008 (keyingi o'rinlarda – MHT – 2008) yo'riqnomasi, shuningdek, Statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model-GSBPM) talablari asosida makroiqtisodiy hisob-kitoblar metodologiyasini yanada takomillashtirish maqsadida tayyorlangan va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi mutaxassislari tomonidan foydalanish uchun mo'ljallangan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushunchalar va ularning ta'riflaridan foydalaniladi hamda u GSBPMning qayta ishlash bosqichi doirasida ma'lumotlarni integratsiyalash, tasniflash va kodlashtirish, yangi ko'rsatkichlarni shakllantirish, umumlashtirish hamda qayta ishlashni yakunlash jarayonlarini o'z ichiga oladi:

aktiv bu – mulkning iqtisodiy egasiga ma'lum vaqt davomida egalik qilish yoki undan foydalanish natijasida iqtisodiy naf yoki bir qator iqtisodiy foyda keltiradigan jamg'arilgan zaxiralar qiymati;

nomoliyaviy aktivlar bu – ishlab chiqarilgan va ishlab chiqarilmaydigan aktivlarni o'z ichiga oluvchi aktivlar;

ishlab chiqarilgan aktivlar – MHT – 2008 ning ishlab chiqarish chegarasi doirasiga kiruvchi ishlab chiqarish jarayonlari natijasida yuzaga keladigan moliyaviy bo'lmagan aktivlar (asosiy fondlar, moddiy aylanma vositalar, qimmatbaho buyumlar);

ishlab chiqarilmaydigan aktivlar – ishlab chiqarish jarayonlarining natijasi bo'lmagan nomoliyaviy aktivlar (tabiiy resurslar; shartnomalar, ijara shartnomalari va litsenziyalar; sotib olingan gudvill va marketing aktivlari);

asosiy fondlar – ishlab chiqarish jarayonlarida bir yildan ortiq vaqt davomida qayta-qayta yoki uzluksiz foydalaniladigan ishlab chiqarilgan aktivlar;

moddiy aylanma vositalar – joriy davrda yoki undan oldingi davrda paydo bo‘lgan va keyinchalik sotish, ishlab chiqarish jarayonida yoki boshqa maqsadlarda foydalanish uchun mo‘ljallangan tovarlar va xizmatlarni o‘z ichiga oluvchi ishlab chiqarilgan nomoliyaviy aktivlar;

qimmatbaho buyumlar – bular katta qiymatga ega bo‘lgan ishlab chiqarilgan tovarlar bo‘lib, asosan ishlab chiqarish yoki iste‘mol maqsadlarida foydalanilmaydi, balki ma‘lum bir vaqt oralig‘ida zaxira sifatida saqlanadi;

asosiy kapitalga investitsiyalar – asosiy fondlarni sotib olish, takror ishlab chiqarish va yangilarini yaratish uchun ajratiladigan xarajatlar majmui;

asosiy kapitalning yalpi jamg‘arilishi – rezident birliklarining ishlab chiqarishda foydalanish orqali kelajakda yangi daromadlar yaratish maqsadida asosiy kapital obyektlariga kiritilgan mablag‘lari;

yalpi jamg‘arish – yalpi ixtiyordagi daromadning tovarlar va xizmatlar yakuniy iste‘moliga sarflanmagan qismi;

transfer bu – bir institutsional birlik tomonidan boshqasiga tovar, xizmat yoki aktivni taqdim etib, evaziga ushbu birlikdan tovar, xizmat yoki aktiv ko‘rinishida daromad olmasdan amalga oshiriladigan operatsiya. U natura yoki pul shaklida bo‘lishi mumkin;

kapital transfertlar bu – transfertni amalga oshiruvchi taraf aktivlarni o‘tkazib berish (naqd pul vositalari va moddiy aylanma vositalardan tashqari) yoki moliyaviy talabni to‘lash (debitor qarzdorlikdan tashqari) yo‘li bilan tegishli resurslardan foydalanadigan, yoki transfert oluvchi taraf ayrim aktivlarni (naqd pul vositalaridan tashqari) sotib olishi kerak bo‘lgan, yoki ikki shart ham amalda bo‘lgan holatdagi beg‘araz transfertlar;

asosiy kapitalning iste‘moli bu – hisobot davrida ishlab chiqaruvchiga tegishli bo‘lgan va u tomonidan foydalaniladigan asosiy fondlar zaxirasi joriy qiymatining jismoniy va me‘yoriy ma‘naviy eskirishi yoki tasodifiy shikastlanish oqibatida kamayishi.

2-bob. Kapital bilan operatsiyalar hisobining tarkibi

2. Kapital bilan operatsiyalar hisobi (keyingi o‘rinlarda – Hisob) MHTdagi to‘rtta jamg‘arma hisoblarining birinchisi bo‘lib, ushbu hisob

institutsional rezident-birliklarning operatsiyalardagi ishtiroki natijasida orttiriladigan yoki sotiladigan nomoliyaviy aktivlari qiymatini ifodalaydi hamda jamg'arma va kapital transfertlar hisobiga kapital sof qiymatidagi o'zgarishni aks ettiradi.

3. Hisobning o'ng tomonida majburiyatlar va kapitalning sof qiymatidagi o'zgarishlar aks ettiriladi. Kapital bilan operatsiyalarning asosiy moliyalashtirish manbai bo'lib, ixtiyoridagi daromadni ishlatilishi hisobidan o'tgan balanslovchi modda – yalpi jamg'arish hisoblanadi. Ushbu operatsiyalarning boshqa moliyalashtirish manbai bo'lib, berib yuborilgan kapital transfertlarni ayirgan holdagi olingan kapital transfertlari hisoblanadi.

4. Jamg'arish va kapital transfertlar birgalikda yalpi ichki mahsulotning elementi hisoblangan jamg'arma shaklidagi nomoliyaviy aktivlarni va ishlab chiqarilmaydigan nomoliyaviy aktivlarni sotib olish uchun iqtisodiyotda qancha resurslar mavjudligini ko'rsatadi. Ushbu yig'indi jamg'arma va kapital transfertlar hisobiga kapital sof qiymatidagi o'zgarishlar deb nomlanuvchi alohida ko'rsatkich sifatida aks ettiriladi.

5. Hisobning chap tomonida nomoliyaviy aktivlarga kiritilgan turli investitsiyalar (asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishi, moddiy aylanma vositalari zaxirasining o'zgarishi, sotib olingan qimmatbaho buyumlarning sof qiymati, sotib olingan ishlab chiqarilmaydigan nomoliyaviy aktivlarning sof qiymati) va asosiy kapitalning iste'moli aks ettiriladi.

6. Kapital bilan operatsiyalar hisobining balanslovchi moddasi sof kreditlash bo'lib, u jamg'arish va kapital transfertlar hisobiga kapital sof qiymatidagi o'zgarishlar va sotib olingan nomoliyaviy aktivlarning sof qiymati o'rtasidagi farq sifatida (sotib olingan nomoliyaviy aktivlardan chiqib ketgan nomoliyaviy aktivlarni va asosiy kapital iste'molini ayirgan holda) aniqlanadi. Agar ushbu qiymat manfiy bo'lsa, unda sof qarzdorlikni ifodalaydi. Ushbu ko'rsatkich kredit sifatida taqdim etilishi mumkin bo'lgan yoki qarz sifatida olinishi kerak bo'lgan resurslar qiymatini bildiradi. Iqtisodiyot miqyosida ushbu balanslovchi modda mamlakatning "tashqi dunyo" sektori ixtiyoriga taqdim etgan yoki "tashqi dunyo" sektori ushbu mamlakatga taqdim etgan resurslar miqdorini aks ettiradi.

7. Kapital bilan operatsiyalar hisobi 1-ilovada keltirilgan sxemaga muvofiq, jami iqtisodiyot bo'yicha va iqtisodiyotning institutsional sektorlari bo'yicha shakllantiriladi.

3-bob. Kapital bilan operatsiyalar hisobini shakllantirish

8. Ushbu hisobda quyidagi nomoliyaviy aktivlar bilan operatsiyalar aks ettiriladi:

- asosiy kapitalning yalpi jamg‘arilishi;
- asosiy kapitalning iste‘moli;
- moddiy aylanma vositalari zaxirasining o‘zgarishi;
- sotib olingan qimmatbaho buyumlarning sof qiymati;
- sotib olingan ishlab chiqarilmaydigan nomoliyaviy aktivlarning sof qiymati.

9. Kapital bilan operatsiyalar hisobini shakllantirishda 2-ildovada keltirilgan nomoliyaviy aktivlar tasniflagichidan foydalaniladi.

10. Asosiy kapitalning yalpi jamg‘arilishi hisobot davrida ishlab chiqaruvchining asosiy vositalarni sotib olishiga qilingan hamda ishlab chiqarilmaydigan aktivlar qiymatini oshiradigan ba’zi xizmat ko‘rsatishga qilingan xarajatlari yig‘indisi sifatida aniqlanadi.

$$GFCF = FA + S, \quad (1)$$

bu yerda,

$GFCF$ – asosiy kapitalning yalpi jamg‘arilishi;

FA – asosiy fondlar;

S – ishlab chiqarilmaydigan aktivlarning qiymatini ko‘paytiradigan xizmatlar.

Kapital bilan operatsiyalar hisobida asosiy kapitalning yalpi jamg‘arilishi odatda quyidagi aktivlar turlari bo‘yicha tasniflaniladi:

turar joylar – to‘liq yoki asosan yashash joyi sifatida foydalaniladigan binolar yoki binolarning ayrim qismlari, shu jumladan har qanday yordamchi binolar, masalan, garajlar va odatda yashash joylarida o‘rnatiladigan barcha doimiy armaturalar;

noturar binolarga turar joylar uchun mo‘ljallanmagan barcha binolar yoki binolarning qismlari kiradi. Inshootlarning ajralmas qismi bo‘lgan armaturalar, qurilmalar va uskunalar kiradi;

boshqa inshootlarga ko‘chalar, kanalizatsiya tizimlari va boshqalar kabi binolardan tashqari inshootlar kiradi;

mashinalar va uskunalarga transport vositalari, axborot, kompyuter va telekommunikatsiya (AKT) uskunalari, boshqa mashina va uskunalar kiradi;

transport vositalariga odamlar va yuklarni tashish uchun mo‘ljallangan vositalar kiradi;

axborot, kompyuter va telekommunikatsiya (AKT) uskunalari elektron boshqaruv vositalaridan foydalanadigan qurilmalar va ushbu qurilmalarning bir qismi bo'lgan elektron komponentlarni o'z ichiga oladi;

boshqa mashinalar va uskunalar boshqa joyda tasniflanmagan mashinalar va uskunalarni o'z ichiga oladi;

qurol-yarog' tizimiga harbiy kemalar, suv osti kemalari, harbiy samolyotlar, tanklar, raketalar hamda uchirish tizimlari kabi transport vositalari va boshqa turdagi jihozlar kiradi;

yetishtiriladigan biologik resurslar tabiiy o'sishi va ko'payishi institutsional birliklarning bevosita nazorati, mas'uliyati va boshqaruvi ostida bo'lgan hayvonot resurslari va muntazam yetishtiriladigan daraxtlar, qishloq xo'jaligi ekinlarini o'z ichiga oladi;

muntazam ravishda yetishtiriladigan hayvonot resurslari tabiiy o'sishi va ko'payishi institutsional birliklarning bevosita nazorati, mas'uliyati va boshqaruvi ostida bo'lgan hayvonlarni qamrab oladi;

muntazam ravishda mahsulot beradigan daraxtlar, qishloq xo'jaligi ekinlari tabiiy o'sishi va ko'payishi institutsional birliklarning bevosita nazorati, mas'uliyati va boshqaruvi ostida bo'lgan o'simliklarni qamrab oladi;

yerni yaxshilash yerning hajmi, sifati yoki unumdorligi sezilarli darajada oshishiga olib keladigan yoki uning yemirilishining oldini oladigan harakatlar natijasini qamrab oladi;

intellektual mulk mahsulotlari ishlab chiquvchilar bozorga chiqarishi yoki ishlab chiqarish jarayonida foyda olish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan bilimlarni yaratadigan ilmiy tadqiqotlar, ishlanmalar, izlanmalar yoki innovatsiyalar natijasini qamrab oladi;

ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga bilimlar zaxirasini, shu jumladan inson, madaniyat va jamiyat haqidagi bilimlarni ko'paytirish va ushbu bilimlar zaxirasidan ularni qo'llashning yangi imkoniyatlarini ishlab chiqishda foydalanish uchun tizimli asosda amalga oshirilayotgan ijodkorlik ishlariga sarflanadigan xarajatlar kiradi;

foydali qazilmalarning zaxiralarini qidirish va baholash neft va tabiiy gaz zaxiralarini, boshqa foydali qazilmalar zaxiralarini qidirish hamda aniqlangan zaxiralarni keyinchalik baholash xarajatlarini o'z ichiga oladi;

kompyuter dasturiy ta'minoti kompyuter dasturlari, dasturlar tavsiflari va kompyuter tizimlari hamda amaliy dasturlar uchun yordamchi materiallarni o'z ichiga oladi;

ma'lumotlar bazalariga ma'lumotlardan iqtisodiy maqsadda foydalanish va ulardan foydalanishni ta'minlaydigan ma'lumotlar fayllari kiradi;

ko'ngilochar, adabiy va badiiy asarlarning asl nusxalariga kinofilmlar, ovoz yozuvlari, qo'lyozmalar, plyonkalar, modellarning asl nusxalari va boshqalar kiradi, ularga drama spektakllari, radio va televidenie dasturlari, musiqiy chiqishlar, sport tadbirlari, adabiy va san'at asarlari va boshqalar yozib olinadi;

boshqa intellektual mulk mahsulotlariga asosiy vositalar bo'lgan, lekin yuqorida muhokama qilingan ushbu toifadagi obyektlarning birortasiga kiritilmagan mahsulotlar kiradi.

Egalik huquqini taqdim etish bilan bog'liq xarajatlar quyidagilardan iborat:

aktivlarni sotuvchilar va ularni xarid qiluvchilar tomonidan advokatlar, arxitektorlar, yer tuzuvchilar, muhandislar va baholovchilar kabi professional xizmatlar uchun amalga oshirilgan barcha to'lovlar, shuningdek, ko'chmas mulk agentlari va auksionchilar uchun komissiyalar;

xaridorga taqdim etilgan hisob-varag'ida alohida ko'rsatilgan savdo va transport xarajatlari;

aktivga egalik huquqini taqdim etish munosabati bilan uni sotib oluvchi birlik tomonidan to'lanadigan soliqlar;

aktivni chiqib ketishi bilan bog'liq bo'lgan har qanday soliqlar;

sotilgan yoki xarid qilingan aktivning narxiga kiritilmagan yetkazib berish, o'rnatish yoki demontaj qilish bilan bog'liq har qanday xarajatlar;

aktivning yaroqlilik muddati oxirida yuzaga kelgan har qanday yakuniy xarajatlar, masalan, inshootning xavfsizligini ta'minlash yoki aktiv joylashgan muhitni tiklash uchun zarur bo'lgan xarajatlar.

Asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishi tarkibiga quyidagilar kiradi:

yangi asosiy vositalarni sotib olish;

mavjud asosiy vositalarni sotib olish (ularni chiqarib tashlashdan tashqari);

ishlab chiqarilmaydigan aktivlarga egalik huquqini taqdim etish bilan bog'liq xarajatlar.

11. Asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishi o'z ichiga quyidagilarni olmaydi:

uzoq vaqt xizmat qilishidan qat'i nazar mayda asboblari, ishchilar kiyimlari, uskunani ta'mirlash uchun ehtiyot qismlari, o'lchash uskunalari, laboratoriya uskunalariga oid asboblarni sotib olish (oraliq iste'molga kiradi);

uy xo'jaliklari tomonidan o'zlari iste'mol qilishlari uchun sotib olinadigan uzoq muddat foydalanishga mo'ljallangan tovarlar (uy xo'jaliklarining yakuniy iste'mol xarajatlariga kiradi);

egasi uchun iqtisodiy manfaat bermaydigan ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarga xarajatlar (oraliq iste'molga kiradi);

buyurtmachi bilan shartnomasiz hamda bajarilgan ishlar uchun to'lov o'tkazilmagan holda amalga oshirilgan tugallanmagan qurilish va tugallanmagan kapital ta'mirlash ishlariga xarajatlar (moddiy aylanma vositalari zaxirasining o'zgarishiga kiradi);

12. Asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishini butun iqtisodiyot va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hisoblash uchun axborot manbalari investitsion faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari va yakka tartibdagi turar va noturar joylarni quruvchi shaxslarning statistika kuzatuv natijalari hisoblanadi.

Asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishi hisobining negizida, MHT konsepsiyasiga asosan kiritilgan tuzatishlarni inobatga olgan holda "Asosiy kapitalga investitsiyalar" ko'rsatkichi yotadi.

13. Asosiy kapitalning iste'moli kapital bilan operatsiyalar hisobining chap tomonida butun iqtisodiyot va sektorlar asosiy kapitali qiymatining kamayishini ko'rsatib beruvchi, aktivlarning salbiy o'zgarishi sifatida qayd etiladi. Bu qayd hisobning o'ng tarafida sof jamg'arish aks etsagina amalga oshiriladi.

14. Moddiy aylanma vositalari zaxirasining o'zgarishi ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot va qayta sotish uchun tovarlarning o'zgarishini o'z ichiga oladi.

15. Ishlab chiqarish zaxiralari korxona tomonidan ishlab chiqarishda oraliq xarajatlar sifatida foydalanish uchun zaxirada ushlab turilgan barcha tovarlarni o'z ichiga oladi. Bu toifaga xomashyo, materiallar, yonilg'i, butlovchi buyumlar, sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar, tuzilmalar, detallar, qadoqlash materiallari, inventarlar, uy jihozlari va boshqa shu kabilar kiradi.

16. Tugallanmagan ishlab chiqarish bu korxona tomonidan ishlab chiqarilgan, biroq texnologik jarayonda ko'zda tutilgan qayta ishlashning barcha bosqichlaridan o'tmagan mahsulotlar (yarim tayyor mahsulotlar), shuningdek, buyurtmachilar tomonidan qabul qilinmagan tugallanmagan ishlardir.

Tugallanmagan ishlab chiqarishga, shuningdek, yetishtirilayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlari, tugallanmagan filmlar yoki kompyuter dasturlari va boshqa shu toifadagi zaxiralar ham kiradi.

17. Tayyor mahsulot korxona tomonidan ishlab chiqarilgan, boshqa institutsional birliklarga yetkazib berishdan oldin qayta ishlash talab etilmaydigan, odatdagi yakuniy mahsulot holatida bo'lgan mahsulotlarni o'z ichiga oladi.

18. Qayta sotish uchun mo'ljallangan tovarlar chakana va ulgurji savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar tomonidan mijozlarga qayta sotish maqsadida sotib olingan tovarlardir.

19. Moddiy aylanma vositalari zaxirasi foydali qazilmalar va boshqa tabiiy resurslar zaxiralari qiymatini o'z ichiga olmaydi.

20. Moddiy aylanma vositalari zaxirasining o'zgarishi korxona va tashkilotlarning moliyaviy holatini davlat statistika kuzatuvlari ma'lumotlari asosida zaxiralar qiymatining hisobot davri boshi va oxiridagi tafovuti orqali hisoblanadi. Moddiy aylanma vositalari zaxirasini hisoblashda narxlar o'zgarishi ta'sir etmasligi uchun davr boshi va oxiri uchun hisobot davrining o'rtacha narxlarida zaxiralarni baholashni nazarda tutuvchi maxsus hisob-kitoblar amalga oshiriladi.

21. Hisobot davrining o'rtacha narxlarida zaxiralar qiymatining o'zgarishi mos tovarlar va xizmatlar narx indekslaridan foydalangan holda, yuqorida aniqlangan moddiy aylanma vositalari zaxiralarining aylanish davridan kelib chiqib, quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$ChIn_{\Delta} = In_{t_2} * \frac{\bar{I}_p}{\bar{I}_{pn}} - In_{t_1} * \frac{\bar{I}_p}{\bar{I}_{p0}}, \quad (2)$$

bu yerda,

$ChIn_{\Delta}$ –

hisobot davrida zaxiralar qiymatining o'rtacha narxlarda o'zgarishi;

In_{t_1} , In_{t_2} – hisobot davri boshi va oxiriga moddiy aylanma vositalari zaxiralarining qiymati;

$\bar{I}_{p0}$ – bazis davr narxlariga nisbatan hisobot davri boshida zaxirada saqlangan tovarlarning o'rtacha narx indeksi;

$\bar{I}_{pn}$ – bazis davr narxlariga nisbatan hisobot davri oxirida zaxirada saqlangan tovarlarning o‘rtacha narx indeksi;

$\bar{I}_p$ – bazis davr narxlariga nisbatan hisobot davri o‘rtacha narxlar indeksi.

Barcha indekslar yagona bazis davrga nisbatan hisoblanadi.

Tugallanmagan ishlab chiqarish va tayyor mahsulot zaxiralarini qayta baholash uchun narx indeksleri sifatida tegishli tarmoqlardagi ishlab chiqaruvchilarning narx indekslaridan foydalaniladi. Ishlab chiqarish zaxiralarini qayta baholash uchun resurslar va ishlatilish jadvallari ma’lumotlari asosida turli xildagi zaxiralarning qaysi tarmoqqa tegishli ekanligi aniqlanadi va ular uchun mos ishlab chiqaruvchilar narx indeksleri olinadi. Qayta sotiladigan tovarlarni baholashda iste’mol tovarlari narx indeksidan foydalaniladi.¹

22. Qimmatbaho buyumlarning sof qiymati ularning sotib olinishi va chiqib ketishi orasidagi farq orqali aniqlanadi. Qimmatbaho buyumlarga quyidagilar kiradi:

sotish uchun mo‘ljallanmagan, ishlab chiqarish xarajatlari sifatida foydalanilmagan, monetar oltin sifatida hamda moliyaviy aktiv sifatida saqlanmagan qimmatbaho metallar va toshlar;

sotishga mo‘ljallanmagan, san’at asari deb e’tirof etilgan rasmlar, haykallar va antiqa buyumlar;

bozor qiymatiga ega bo‘lgan pochta markalari, tangalar, chinnilar, kitoblar va boshqa kolleksiyalar;

muhim va real qiymatga ega qimmatbaho toshlar va metallardan yasalgan yuksak badiiy zargarlik buyumlari.

Uzoq vaqt davomida ushbu tovarlarning haqiqiy qiymati oshadi yoki hech bo‘lmaganda kamaymaydi va normal saqlash sharoitida qiymatlar jismoniy xususiyatlarini yoqotmaydi deb taxmin qilinadi.

MHT – 2008 ga ko‘ra, qimmatbaho buyumlar iqtisodiyotning barcha institutsional sektorlarining har qanday institutsional birliklariga tegishli bo‘lishi mumkin.

23. Yalpi jamg‘arish asosiy kapitalning yalpi jamg‘arilishi, moddiy aylanma vositalari zaxirasining o‘zgarishi va qimmatbaho buyumlarni sof sotib olish yig‘indisi bilan aniqlanadi.

$$GCF = GFCF + CnIn + V, \quad (3)$$

bu yerda,

GCF – yalpi jamg‘arilish;

¹ https://lib.stat.uz/e-stat/SNS/MOC_uz.pdf

$GFCF$ – asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishi;

$CnIn$ – moddiy aylanma vositalari zaxirasining o'zgarishi;

V – qimmatbaho buyumlarni sof sotib olish.

Sof jamg'arilish yalpi jamg'arilishdan asosiy kapitalning iste'molini chegirib tashlash yo'li bilan aniqlanadi.

$$NCF = GCF - CFC, \quad (4)$$

bu yerda,

NCF – sof jamg'arilish;

GCF – yalpi jamg'arilish;

CFC – asosiy kapitalning iste'moli.

24. Ishlab chiqarilmaydigan nomoliyaviy aktivlar o'z ichiga quyidagilarni oladi:

tabiiy resurslar (yer, mineral va energetik foydali qazilma resurslari, yetishtirilmaydigan biologik resurslar, suv resurslari, radio to'lqinlar diapazonlari va boshqalar);

bitimlar, ijara shartnomalari va litsenziyalar (muomaladagi operatsion lizing bitimlari, tabiiy resurslardan foydalanish uchun ruxsatnomalar, muayyan faoliyat turi bilan shug'ullanish uchun ruxsatnomalar, kelajakda istisno tariqasida tovar va xizmatlarni olish huquqi);

sotib olingan gudvill va marketing aktivlari.

Sof ishlab chiqarilmaydigan aktivlarni sotib olish shu ko'rinishdagi sotib olingan aktivlardan chiqib ketgan aktivlarni chegirib tashlash yo'li bilan aniqlanadi.

Ishlab chiqarilmagan aktivlarga egalik huquqining topshirilishi bilan bog'liq xarajatlar ishlab chiqarilgan aktivlar sifatida qaraladi va asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishi alohida toifasi sifatida aks etadi. Shuningdek, yerlarni yaxshilash va yerga egalik huquqining topshirilishi bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishi tarkibida ko'rsatiladi va asosiy fondlar sifatida aks etadi.

25. Ishlab chiqarilmaydigan nomoliyaviy aktivlar to'g'risida ma'lumotlarni shakllantirishning axborot manbai bo'lib, korxona va tashkilotlarning investitsion faoliyatini davlat statistika kuzatuv shakllari hisoblanadi.

26. Olinishi lozim bo'lgan kapital transfertlar kapitalning sof qiymatini oshiradi va mos ravishda hisobning o'ng tomonida aks ettiriladi. To'lanishi lozim bo'lgan kapital transfertlar ham hisobning o'ng tomonida manfiy belgi bilan aks ettiriladi (ya'ni, ular kapitalning sof qiymatini kamayib ketishiga olib keladi).

27. Kapital transfertlar, odatda yirik va nomuntazam bo'lib, bitim ishtirokchilaridan aktivlarni sotib olish yoki ularni chiqarib tashlashni o'z ichiga oladi.

Kapital transfertlar kapital uchun soliqlar, investitsion grantlar hamda boshqa kapital transfertlarning umumiy qiymati sifatida aniqlanadi.

$$CT = CTax + IG + OCT, \quad (5)$$

bu yerda,

CT – kapital transfertlar;

$CTax$ – kapital uchun soliqlar;

IG – investitsion grantlar;

OCT – boshqa kapital transfertlar.

Kapital uchun soliqlar institutsional birliklarga tegishli bo'lgan aktivlar qiymatidan yoki kapitalning sof qiymatidan yoki meros qolishi, sovg'alar yoki boshqa transfertlar natijasida bir institutsional birlikdan boshqa institutsional birlikka o'tkazilgan aktivlarning sof qiymatidan, nisbatan kam va nomuntazam undiriladigan soliqlarni o'z ichiga oladi. Kapital uchun soliqlarga shuningdek, kapital transfertlar, ya'ni institutsional birliklar o'rtasida o'tkazilgan aktivlar qiymatini o'z ichiga oladi.

Kapital uchun soliqlarga quyidagilar kirmaydi:

a) aktivlarni sotishdan olinadigan soliqlar (mahsulotlar uchun soliqlarga tegishli);

b) asosiy kapital sifatida foydalaniladigan aktivlar (bino va inshootlar, transport vositalari) bo'yicha ishlab chiqarish birliklari tomonidan muntazam ravishda to'lanadigan soliqlar, shuningdek, yer solig'i (ular ishlab chiqarishga boshqa soliqlarga tegishli);

d) asosiy kapital hisoblanmaydigan mol-mulk (masalan, ishlab chiqarish maqsadlarida foydalanilmaydigan transport vositalari) uchun uy xo'jaliklari tomonidan muntazam ravishda to'lanadigan soliqlar.

Kapital uchun soliqlar davlat budjetining ijrosi to'g'risidagi hisobotga muvofiq aniqlanadi. Kapital bilan operatsiyalarda kapital uchun soliqlar tegishli sektorlar tomonidan davlat boshqaruvi organlari sektoriga o'tkazilganda ko'rsatiladi.

Investitsion grantlar davlat tomonidan boshqa institutsional birliklarga – rezidentlarga yoki norezidentlarga asosiy vositalarni sotib olish xarajatlarini to'liq yoki qisman moliyalashtirish uchun taqdim etiladigan kapital transfertlarni o'z ichiga oladi.

Pul ko'rinishidagi investitsion grantlarni oluvchilar ulardan asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishi uchun foydalanishlari shart. Bunday investitsion

grantlar ko‘pincha yirik qurilish loyihalari bilan bog‘liq bo‘lib, bir qancha hisobot davrlarida bo‘lib-bo‘lib to‘lanishi mumkin.

Natura shaklidagi investitsion grantlar mashinalar, uskunalar, binolar va inshootlarning transferlaridan iborat. Qurol-yarog‘ ko‘rinishidagi harbiy texnika va ularni ishga tushirish tizimlari investitsion grantlar hisoblanmaydi, chunki ular asosiy kapitalning yalpi jamg‘arilishiga kiritilmaydi.

Investitsion grantlar davlat budjetining ijrosi to‘g‘risidagi hisobotga muvofiq aniqlanadi.

Davlat budjetidan tijorat davlat va nodavlat korxona hamda muassasalarga investitsion grantlar davlat boshqaruvi organlari sektoridan nomoliyaviy korxonalar va moliyaviy institutlariga kapital transfertlari sifatida hisobga olinadi. Budjet muassasalariga investitsion grantlar umumiy davlat sektori doirasidagi kapital transfertlari sifatida ko‘rib chiqiladi va agar subsektorlar bo‘yicha tuzilmagan bo‘lsa, kapital bilan operatsiyalar hisobida aks ettirilmaydi.

Boshqa kapital transfertlar kapital uchun soliqlar va investitsion grantlardan tashqari barcha kapital transfertlarni o‘z ichiga oladi. Bu yerda alohida toifa – kreditor va debitor o‘rtasidagi o‘zaro kelishuv asosida qarzni kechirish nazarda tutiladi.

Butun iqtisodiyot kesimidagi kapital bilan operatsiyalar hisobi ichki iqtisodiyot va “tashqi dunyo” o‘rtasidagi kapital transferlarni aks ettiradi.

4-bob. Asosiy kapitalning yalpi jamg‘arilishini doimiy narxlarda baholash

28. Asosiy kapitalning yalpi jamg‘arilishini doimiy narxlarda hisoblash solishtirilayotgan davrlarda inflyatsiya jarayonlarini hisobga olgan holda, investitsiyalar hajmining o‘zgarishini tavsiflovchi asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning fizik hajm indeksidan foydalangan holda ekstrapolyatsiya yo‘li bilan amalga oshiriladi.

29. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning fizik hajmi indeksini hisoblash solishtirilayotgan davrlarda taqqoslama narxlardagi investitsiyalar hajmini taqqoslash yo‘li bilan quyidagi formula bo‘yicha amalga oshiriladi:

$$I_q = (V_1 : V_0) : I_p * 10000, \quad (6)$$

bu yerda,

I_q – fizik hajm indeksi;

V_1, V_0 – hisobot davri va o‘tgan yilning tegishli davri uchun qurilish ishlarining joriy narxlardagi hajmi;

I_p – deflyator indeksi.

30. Yuridik shaxslarning asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari bo‘yicha deflyator indeksi qurilish-montaj ishlari, mashina va asbob-uskunalar

hamda boshqa kapital ishlar va xarajatlarning ushbu elementlarning asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari umumiy hajmidagi vaznlari orqali baholangan narx indeksleri yig'ma ko'rsatkichi hisoblanadi.

5-bob. Yakuniy qoidalar

31. Kapital bilan operatsiyalar hisobi doirasida quyidagilar tahlil qilinadi:

investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarining tuzilishi. Buning uchun investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarining umumiy qiymatida yalpi jamg'arish va kapital transfertlarning ulushi ko'rsatkichlari hisoblab chiqiladi;

investitsiyalarni jalb qilishga yo'naltirilgan siyosatning natijalari. Bu maqsadda, asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishi, moddiy aylanma vositalari zaxirasining o'zgarishi, sof qimmatbaho buyumlarni sotib olish, shuningdek, ishlab chiqarilmaydigan aktivlarni sotib olishning sof qiymati, nomoliyaviy aktivlar turlari bo'yicha, institutsional sektorlar va iqtisodiy faoliyat turlari kesimida o'zaro nisbati hisoblanadi;

balanslovchi modda. Iqtisodiyot uchun "sof kreditlash yoki sof qarzdorlik" ko'rsatkichining qiymati musbat saldo bo'lganda, "tashqi dunyo"ga kredit ko'rinishida taqdim etilgan, manfiy saldo bo'lganda esa "tashqi dunyo" sektoridan qarzga olinishi kerak bo'lgan resurslar hajmini ko'rsatadi.

32. Kapital bilan operatsiyalar hisobi ko'rsatkichlari tovarlar va xizmatlar hisobi hamda "tashqi dunyo" hisobi ko'rsatkichlari bilan o'zaro bog'liq. Shunga muvofiq, uni tuzishda hisobning alohida va yakuniy ko'rsatkichlari o'zaro bog'langan hisoblarning ko'rsatkichlari bilan mantiqiy jihatdan mos kelishi ta'minlanadi.

Tovarlar va xizmatlar hisobi munosabatlarida kapitalning yalpi jamg'arilishi ko'rsatkichining barcha elementlari, shuningdek, moddiy aylanma vositalari zaxirasining o'zgarishi va sof qimmatbaho buyumlarni sotib olish ko'rsatkichlari bo'yicha, "tashqi dunyo" hisobi uchun esa joriy savdo balansi va kapital transfertlar ko'rsatkichlari bo'yicha bunday muvofiqlik ta'minlanadi.

Birinchi holda, kapital bilan operatsiyalar hisobining o'zaro bog'liq ko'rsatkichlari bo'lib, ichki iqtisodiyot jami sektorlari uchun shakllantiriladigan tegishli yakuniy ko'rsatkichlar hisoblanadi. Ikkinchi holda esa, iqtisodiyot ixtiyoridagi uning sektorlari sof jamg'arishi ko'rinishidagi resurslar va ulardan nomoliyaviy aktivlarni shakllantirishda foydalanish o'rtasidagi munosabatni aks ettiruvchi hamda kreditlash imkoniyatini (ortiqcha resurslar mavjud bo'lganda) yoki "tashqi dunyo"dan qarz olish (ular yetishmaganda) zaruriyatini aniqlab beruvchi hisoblab topilgan ko'rsatkichlar o'zaro bog'liqlikni aks ettiradi.

33. Mazkur uslubiy hujjatni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari "Statistik ma'lumotlarni taqdim etishning universal modeli" (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan "Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanma"ga muvofiq amalga oshirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni O'RQ-707 11- avg. 2021- y.;
2. Milliy hisoblar tizimi – 2008 // Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa komissiyasi, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti, Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon banki, 2009- y.;
3. European system of accounts – 2010 // Eurostat, 2013;
4. BMT YIKning Milliy hisoblar tizimi – 2008 ni Sharqiy Yevropa, Kavkaz va Markaziy Osiyo hamda Janubi-Sharqiy Yevropa davlatlarida joriy qilish bo'yicha tavsiyalari // BMT YEIKning Statistika bo'limi, 2013- y.;
5. Энциклопедия статистических терминов // Росстат, 2011г.;
6. Nomoliyaviy korxonalar sektori uchun MHT hisoblarini tuzish uchun ko'rsatkichlarni hisoblash usullari va ma'lumotlar manbalari // MDH Statistika qo'mitasi, 2001- y.;
7. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2019- yil 28- iyundagi 34- sonli qarori bilan tasdiqlangan "Nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalarni umumiy hajmini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom";
8. Statistik ko'rsatkichlarga qisqacha uslubiy tushuntirishlar// O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi.-T., 2020- y.

“Kapital bilan operatsiyalar hisobini
shakllantirish bo‘yicha Uslubiy nizom”ga
1-ILOVA

Kapital bilan operatsiyalar hisobining sxemasi

joriy narxlarda, mln. so‘m

Aktivlardagi o‘zgarishlar								Operatsiyalar va balanslovchi modda	Majburiyatlar va sof kapital qiymatining o‘zgarishi							
Jami	Tashqi dunyo	Iqtisodiyot sektorlari bo‘yicha jami	UXXKNT	Uy xo‘jaliklari	Davlat boshqaruvi organlari	Moliyaviy korporatsiyalar	Nomoliyaviy korporatsiyalar		Nomoliyaviy korporatsiyalar	Moliyaviy korporatsiyalar	Davlat boshqaruvi organlari	Uy xo‘jaliklari	UXXKNT	Iqtisodiyot sektorlari bo‘yicha jami	Tashqi dunyo	Jami
								Yalpi jamg‘arish								
								Yalpi jamg‘arilish								
								Asosiy kapitalning yalpi jamg‘arilishi								
								Moddiy aylanma vositalari zaxirasining o‘zgarishi								
								Qimmatbaho buyumlarni ularni chiqib ketishini hisobga olgan holda sotib olish								
								Olinishi kerak bo‘lgan kapital transfertlar (+)								
								To‘lanishi kerak bo‘lgan kapital transfertlar (-)								
								Jamg‘arish va kapital transfertlar natijasida kapital sof qiymatining o‘zgarishi								
								Sof kreditlash (+) yoki sof qarz olish (-)								

Nomoliyaviy aktivlar tasniflagichi

Kodlar	Nomoliyaviy aktivlar nomi
AN1	ISHLAB CHIQARILGAN AKTIVLAR
AN11	Asosiy fondlar
AN111	<i>Turar joy binolari</i>
AN112	<i>Boshqa bino va inshootlar</i>
AN1121	<i>Noturar binolar</i>
AN1122	<i>Boshqa inshootlar</i>
AN1123	<i>Yerlarni yaxshilash</i>
AN113	<i>Mashinalar va uskunalar</i>
AN1131	<i>Transport vositalari</i>
AN1132	<i>Axborot, kompyuter va telekommunikatsiya (AKT) uskunalari</i>
AN1133	<i>Boshqa mashinalar va uskunalar</i>
AN114	<i>Qurol-yarog‘ tizimi</i>
AN115	<i>Yetishtiriladigan biologik resurslar</i>
AN1151	<i>Muntazam ravishda mahsulot beradigan jonivorlar resurslari</i>
AN1152	<i>Muntazam ravishda hosil beradigan daraxtlar, qishloq xo‘jaligi o‘simliklari va ekinlari</i>
AN116	<i>Ishlab chiqarilmaydigan aktivlarga egalik huquqini o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlar</i>
AN117	<i>Intellectual mulk mahsulotlari</i>
AN1171	<i>Ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar</i>
AN1172	<i>Foydali qazilmalar zaxiralarini o‘rganish va baholash</i>
AN1173	<i>Kompyuter dasturiy ta‘minoti va ma‘lumotlar bazasi</i>
AN11731	<i>Kompyuter dasturiy ta‘minoti</i>
AN11732	<i>Ma‘lumotlar bazasi</i>
AN1174	<i>Ko‘ngilochar, adabiy va badiiy san‘at asarlarining asl nusxalari</i>
AN1179	<i>Boshqa intellectual mulk mahsulotlari</i>
AN12	Moddiy aylanma vositalari
AN121	<i>Xomashyo va materiallar</i>
AN122	<i>Tugallanmagan ishlab chiqarish</i>
AN1221	<i>Yetishtiriladigan biologik resurslar tugallanmagan ishlab chiqarishi</i>
AN1222	<i>Boshqa tugallanmagan ishlab chiqarish</i>
AN123	<i>Tayyor mahsulotlar</i>
AN124	<i>Harbiy sohaga yo‘naltirilgan moddiy aylanma vositalari</i>
AN125	<i>Qayta sotish uchun mo‘ljallangan tovarlar</i>
AN13	Qimmatbaho buyumlar
AN131	<i>Qimmatbaho metallar va toshlar</i>
AN132	<i>Antiq buyumlar va boshqa badiiy buyumlar</i>
AN133	<i>Boshqa qimmatbaho buyumlar</i>
AN2	ISHLAB CHIQARILMAYDIGAN AKTIVLAR
AN21	Tabiiy resurslar
AN211	<i>Yer</i>
AN212	<i>Mineral va energetik foydali qazilmalar resurslari</i>
AN213	<i>Yetishtirilmaydigan biologik resurslar</i>
AN214	<i>Suv resurslari</i>
AN215	<i>Boshqa tabiiy resurslar</i>
AN2151	<i>Radioto‘lqinlar diapazonlari</i>
AN2159	<i>Boshqalar</i>
AN22	Shartnomalar, ijara bitimlari va litsenziyalar
AN221	<i>Muomaladagi operatsion lizing bitimlari</i>
AN222	<i>Tabiiy resurslardan foydalanish uchun ruxsatnomalar</i>
AN223	<i>Muayyan faoliyat turlari bilan shug‘ullanish uchun ruxsatnomalar</i>
AN224	<i>Kelajakda istisno tariqasida tovarlar va xizmatlarni olish huquqi</i>
AN23	Sotuvdan tashqari gudvill va marketing aktivlarini sotib olish